



AKADEMIK BAHOLASH TARTIBI

(Qo'qon universiteti Kengashining 2024-yil 19-iyundagi
4-son bayoni bilan tasdiqlangan)





QO'QON UNIVERSITETI



AKADEMIK BAHOLASH TARTIBI

(Qo'qon universiteti Kengashining 2024-yil 19-iyundagi
4-son bayoni bilan tasdiqlangan)

MUNDARIJA

1-bob. Umumiy qoidalar.....	3
1.1-§. Qo'llanish sohalari va shartlari.....	3
1.2-§.Ta'limni kredit tizimida baholashning umumiy tartibotlari.....	3
2-bob. Ta'limni kredit tizimida baholash bilan bog'liq atamalar.....	4
3-bob. Nazorat turlari va baholash mezonlari.....	5
3.1-§. Nazorat turlari.....	5
3.1.1-§. Joriy baholash.....	6
3.1.2-§. Oraliq imtihon.....	7
3.1.3-§. Yakuniy imtihon.....	9
3.2-§. Talabalar bilimini baholash mezonlari.....	11
4-bob. Talabalar bilimini baholash ko'rsatkichlari.....	12
4.1-§. Baholash tavsifi.....	12
4.2-§. Baholash natijalarini qayd qilish tartibi.....	14
4.3-§. O'zlashtirilmagan fanlarni qayta topshirish tartibi.....	14
5-bob. Yakuniy qoidalar.....	15

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Qo'llanish sohalari va shartlari

1. Mazkur baholash tartibi Qo'qon universiteti (bundan keyingi o'rinlarda – Universitet deb yuritiladi)ga o'qishga qabul qilingan talabalarning bilimini nazorat qilish va baholashda qo'llaniladi.

2. O'zlashtirish darajasi olingan bilim, ko'nikma va malakani baholashning natijasi hisoblanadi. O'zlashtirish ko'rsatkichi bilim, ko'nikma va malakani baholash uchun asosiy mezon hisoblanadi.

3. Ushbu baholash tartibi asosida o'quv rejasiga muvofiq to'liq yoki qisman o'zlashtirish natijasida bitiruvchilarga O'zbekiston Respublikasida oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat sifatida e'tirof etiladigan belgilangan namunadagi diplom va(yoki) sertifikat beriladi.

4. Birinchi o'quv mashg'ulotida talabalar mazkur baholash tartibi bilan tanishtiriladi.

1.2. Ta'limni kredit tizimida baholashning umumiy tartibi

5. Ta'limning kredit tizimi talabaning auditoriya va mustaqil ta'limdagi faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Kredit tizimida baholashning shaffofligi ta'minlanadi.

6. Ta'limning kredit tizimini asosiy afzalliklaridan biri – OTMlararo talaba almashinuvini soddalashtirish hisoblanadi. Bu tizimda tanlov fanlarining ko'pligi ish beruvchilar uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishini ta'minlab beradi.

7. Talaba ta'limning kredit tizimida muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun quyidagi talablarni bajarishi lozim:

- mustaqil ishlashi;
- tanqidiy, kreativ va tahliliy fikrlay olishi;
- mas'uliyat va o'ziga ishonchning yuqoriligi;
- aniq maqsad qo'ya olishi va shu maqsad sari mustaqil harakatlanishi;
- o'zi qiziqqan kasb va mutaxassisligidan kelib chiqib, fanlarni to'g'ri tanlashi.

8. Talaba fanni to'liq yoki qisman o'zlashtirishi natijasida o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega bo'ladi. O'zlashtirish ko'rsatkichi kredit to'plash uchun asosiy mezon hisoblanadi.

9. 1 kredit 30 akademik soatga teng. O'quv fanidan 60 foiz va undan ortiq o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega bo'lgan talaba fanga ajratilgan kreditga ega bo'ladi.

10. Talaba bir o'quv yili uchun o'quv rejada belgilangan 30 kreditli va undan

ko'p fanlardan akademik qarzidor (feyl) bo'lsa, kursdan kursga o'tkazilmaydi va kursda qoldiriladi.

11. Ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat sifatida e'tirof etiladigan belgilangan namunadagi diplom olishi uchun talaba butun o'quv davri mobaynida o'quv rejada ko'rsatilgan kreditlarni to'plashi talab etiladi.

12. Talabalarga o'quv reja asosida har bir semestrda 30 kreditli o'quv fanlari, amaliyotlar, kapston loyiha hamda bitiruv malakaviy ishi yoki yakuniy attestatsiyalardan iborat yuklama taqdim etiladi.

13. Akademik qarzidor bo'lgan talabalar qishki va yozgi maktablarning har birida semestr davomida o'zlashtira olmagan fanlar doirasida eng ko'pi bilan 15 kreditni qayta o'zlashtirishiga imkon beriladi.

2-bob. Ta'limni kredit tizimida baholashga oid atamalar

14. **GPA (Grade Point Average)** - ta'lim oluvchining o'quv reja bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati.

15. **Akademik ma'lumotnoma (akademik transkript)** - ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan sinov birliklari va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat.

16. **Akademik mobillik** - qabul qiluvchi muassasada talabaning vaqtincha ta'lim olish davrida sinov birliklarini o'zlashtirishi va ularni jo'natuvchi muassasa tomonidan tan olinishi.

17. **Akademik soat o'lchovi** - ma'ruza, laboratoriya, seminar, studiya va amaliy mashg'ulotlar hamda amaliyotlarning 1 akademik soati 45 daqiqaga teng.

18. **Vazifa/topshiriqlar** - fanlarning muayyan kontentini talaba tomonidan, tashabbus ko'rsatgan holda, mustaqil bajariladigan faoliyatning shakli. Mustaqil ish mavzularini fan o'qituvchisi beradi yoki talaba mustaqil fan xususiyatidan kelib chiqib tanlaydi.

19. **Imtihon nazoratchisi** - oraliq, yakuniy va boshqa nazorat turlarini o'tkazishda imtihonda qatnashib, tartibni va nazoratni ta'minlashga yordam beradigan personal.

20. **Loyiha** - fan o'qituvchisi tomonidan muayyan talabaga yoki talabalar guruhiga berilgan topshiriqning shakli. Taqdimot-loyiha topshiriqlarini fan o'qituvchisi beradi yoki talaba va talabalar guruhi o'zi tanlaydi.

21. **Mobillik dasturi** - ta'lim to'g'risidagi kelishuv asosida akademik mobillik davrida talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan ta'lim dasturi.

22. **Oraliq imtihon** - tegishli fandan talabalar bilimini ma'lum muddat

oralig'ida baholash.

23. **Sinov birliklari (kreditlar)** - ta'lim olish natijalari asosida o'qitish hajmi.

24. **Sinov birliklarini berish** - malaka yoki uning alohida qismlariga qo'yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba yoki boshqa ta'lim oluvchilarga sinov birliklarini rasmiy taqdim etish jarayoni.

25. **Sinov birliklarini ko'chirish (kredit transferi)** - malakaga ega bo'lish maqsadida bir ta'lim muassasasi, ta'lim dasturida olingan sinov birliklarini boshqa ta'lim muassasasida tan olish.

26. **Sinov birliklarini tan olish** - boshqa ta'lim muassasasida erishilgan va baholangan ta'lim olish natijalarining Universitetdagi mavjud fan dasturlaridan birining talablariga javob berishini tasdiqlash.

27. **Sinov birliklarini to'plash** - ta'lim elementlarini o'zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan birliklarni to'plash.

28. **Ta'lim olish natijalari** - talaba tomonidan o'zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach, o'zlashtirgan ko'nikmalari, topshiriqlarni tushuntirishi va ularni bajarish qobiliyatining tavsifi.

29. **Ta'lim to'g'risidagi ma'lumotnoma** - o'zlashtirilgan fanlar, to'plangan sinov birliklari miqdori, olingan baholar aks ettiriladigan talabaning akademik o'zlashtirishi bo'yicha guvohnoma.

30. **O'zlashtirish qaydnomasi** - muayyan fan bo'yicha guruhning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi ta'lim faoliyati natijalariga oid hujjat.

31. **Yakuniy imtihon** - oraliq baholashdan keyingi o'zlashtirgan bilimlarini baholash turi.

3-bob. Nazorat turlari va baholash mezonlari

3.1. Nazorat turlari va mezonlari

32. Bilimni nazorat qilish turlari quyidagilardan iborat:

- joriy baholash (JB);
- oraliq imtihon (OI);
- yakuniy imtihon (Yal).

33. Fanlardan mustaqil ta'lim ishlarining natijalari, dars va imtihon jarayonlarida joriy oraliq va yakuniy baholashlar tarkibida aks ettiriladi. Mustaqil ta'lim fan xususiyatiga ko'ra amaldagi mavjud barcha shakllarda bajarilishi mumkin.

34. Nazorat turlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari ta'lim shakllarining mazmuniga ko'ra quyidagicha taqsimlanadi:

1-jadval

Kunduzgi va kechki ta'lim shakllari uchun fan bo'yicha semestr davomida o'zlashtirish ko'rsatkichlari tavsifi

Joriy baholash		Oraliq imtihon	Yakuniy imtihon	O'zlashtirish ko'rsatkichi
Loyiha /vazifa /topshiriqlar/ Workshop	Davomat			
25 %	15 %	20 %	40 %	100 %

2-jadval

Sirtqi va masofaviy ta'lim shakllari uchun fan bo'yicha semestr davomida o'zlashtirish ko'rsatkichlari tavsifi

Joriy baholash, loyiha /vazifa /topshiriqlar	Oraliq imtihon	Yakuniy imtihon	O'zlashtirish ko'rsatkichi
40 %	20 %	40 %	100 %

35. Talabalar bilimini baholash 100 foizlik tizimda amalga oshiriladi va mazkur o'zlashtirish ko'rsatkich GPAGA transfer qilinadi.

3.1.1. Joriy baholash

36. Joriy baholash ta'lim shakllarining xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Joriy baholash quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi mumkin:

- Workshop (mustaqil ta'lim).
- Loyiha /vazifa /topshiriqlar (mustaqil ta'lim).
- Davomat.

37. Joriy baholash tarkibida mustaqil ta'lim topshiriqlari mavjud bo'lgan tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Joriy baholash fan bo'yicha uyga berilgan vazifalar va talabaning o'tilgan mavzular bo'yicha qoldiq bilimlarini shakllanganligiga qarab turli baholash metodikalari bilan amalga oshiriladi. Joriy baholashning asosida mustqali ta'lim, talabaning darsga qatnashish davomati va dars mashg'ulotlardagi faolligi turadi.

38. Mustaqil ish topshirig'i referat, esse, individual taqdimotlar, tadqiqot o'tkazish, anketa-so'rov, keys-stadi, test tuzish, masala tuzish, o'quv loyihalarini tayyorlash, korxona va tashkilotlar faoliyatini tahlil qilish, maqola va tezislarni o'rganib, xulosalar yozish, ilmiy monografiyalar, o'quv adabiyotlarini o'rganish va xulosa yozish, taqqoslash, ilmiy-amaliy anjumanlarga ma'ruza tezislari va ilmiy maqolalarni tayyorlash, intervyu va turli axborotlarni tahlil qilish, tadqiqotlar

o'tkazish hamda shu kabi boshqa ta'lim maqsadlariga munosib shakllarda beriladi.

3.1.2. Oraliq imtihon

39. Oraliq imtihon o'quv semestrining 8-haftasida bo'lib o'tadi. Oraliq imtihon har bir o'quv fanidan bir marta olinadi. Savollar o'quv semestrining boshidan 8-haftaga qadar o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim va boshqalar bo'yicha berilgan topshiriqlar asosida o'tkaziladi.

40. Oraliq imtihonni taqdimot, loyiha, o'quv loyiha, test, esse, keys-stadi, assesment, bayon yoki ularning aralash varianti va boshqa turdagi yozma shakllarda o'tkazilishga yo'l qo'yiladi. Oraliq imtihonni o'tkazish shakli semestr boshida kafedra yig'ilishida muhokama qilinadi va sillabusda belgilanadi.

41. Oraliq imtihonlar o'tkazish bo'yicha grafik Talabalarga xizmat ko'rsatish departamenti tomonidan ishlab chiqiladi, fakultet dekanlari bilan kelishiladi va Akademik ishlar bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadi.

42. Oraliq imtihon turining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va mas'ul xodimga nazoratga kamida 5 kun qolganida shifrlab topshiriladi.

43. Oraliq imtihon savollarining aynan o'zi talabalarga oldindan berilmaydi. Konsultasiyalarda shu kabi boshqa savollar muhokama qilinadi va oraliq imtihon savollarining konfidentsialligi mas'ullar tomonidan ta'minlanadi.

44. Oraliq imtihonini o'tkazishga Akademik departament, Talabalarga xizmat ko'rsatish departamenti, fakultet dekanati va kafedralar mas'ul. Oraliq imtihonlar markazlashgan tartibda o'tkaziladi. O'tkazish shakli fanning xususiyatidan, moddiy-texnik bazasidan kelib chiqib belgilanadi.

45. Oraliq imtihonlarni o'tkazish uchun fakultet dekanati tomonidan ishchi komissiya va apellyatsiya komissiyasi tarkiblari shakllantiriladi. Ishchi komissiya tarkibi, rais, imtihon nazoratchisi va oraliq imtihonni tekshiruvchi professor-o'qituvchilardan iborat bo'ladi. Apellyatsiya komissiyasi rais va a'zolardan iborat bo'ladi.

46. Oraliq imtihonni topshirish uchun 2 akademik soatdan kam bo'lmagan vaqt belgilanadi. Vaqt oralig'i o'quv fani va topshiriqlarning xususiyatidan kelib chiqib o'zgarishi mumkin.

47. Oraliq imtihon yakunlanganidan so'ng, Akademik ishlar departamenti tomonidan nazorat topshiriqlari shifrlanadi va mas'ul xodimga topshiriladi. Mas'ul xodim tekshiruvchi o'qituvchilarga oraliq imtihonini beradi. Tekshiruvchi o'qituvchilar 3-7 ish kuni ichida tekshirib natijalarni mas'ul xodimga taqdim etadi. Nazorat ishlari Akademik ishlar departamentiga topshiradi. Akademik ishlar

departamenti shifrlangan nazorat ishlarini identifikatsiya qilib, 1 kun muddat ichida fakultet dekanatiga topshiradi. Talabalarga xizmat ko'rsatish departamenti natijalarni talabalarga 3 ish kuni ichida e'lon qilib universitetning ta'lim platformasiga joylashtiradi.

48. Oraliq imtihonining natijalari kamida 1 haftada e'lon qilinadi.

49. Natijalar e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida fakultet dekanining nomiga apellyatsiya bo'yicha ariza berish huquqi mavjud. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan kamida 5 ish kuni ichida talabaning arizasi bo'yicha nazorat ishi ko'rib chiqiladi. Apellyatsiya komissiyasining xulosasi muhokama qilinmaydi.

50. Oraliq imtihon belgilangan muddatda topshirilmasa (asoslovchi sababini ko'rsatadi), natijalar e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat ichida ariza bilan murojaat qiladi. 10 kun ichida tasdiqlangan grafik asosida nazoratni qayta topshiradi.

51. Oraliq imtihonlarga sababli yoki sababsiz qatnashmagan talabalarga yakuniy imtihonga qadar belgilangan grafik asosida qayta topshirish imkoni beriladi.

52. Oraliq imtihonini qayta topshirish uchun:

- o'quv jarayoniga salbiy ta'sir qilmagan holda tuzilgan grafik asosida yakuniy imtihonga qadar qayta topshirish lozim;

- qayta topshirilgan oraliq imtihon bo'yicha belgilangan tartibda apellyatsiya berishga yo'l qo'yiladi;

- oraliq imtihonni qayta topshirishda ishtirok etmaganlarga boshqa muddatda qayta topshirish tashkil etilmaydi va oraliq imtihondan o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega bo'lmaydi.

3.1.3. Yakuniy imtihon

53. Yakuniy imtihon turi o'quv semestri va(yoki) o'quv fani yakunida o'tkaziladi.

54. Yakuniy imtihon har bir o'quv fanidan faqat bir marta olinadi. Yakuniy imtihon savollari o'quv semestri davomida o'tilgan barcha mavzular va berilgan topshiriqlarni qamrab oladi.

55. Yakuniy imtihon taqdimot, loyiha, o'quv loyiha, test, esse, keys-stadi, assesment, bayon yoki ularning aralash varianti va boshqa turdagi yozma shakllarda o'tkazilishga yo'l qo'yiladi.

56. Yakuniy imtihon turining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladi va mas'ul xodimga nazoratga kamida 10 ish kuni qolganida variantlarga bo'lingan holda shifrlab topshiriladi.

57. Semestr boshlanishi bilan yakuniy imtihonlarni o'tkazish shakli va savollari (javob va variantlarsiz) yoki ularning ma'lum fragmentlari imtihonlarga tayyorlanish uchun talabalarga tarqatib beriladi.

58. Yakuniy imtihon uchun konsultatsiyalar tashkil etiladi. Konsultatsiyalar jadvali kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va e'lon qilinadi. Yakuniy imtihon savollarining variantlarga bo'lingan oxirgi shaklining konfidentsialligi ta'minlanadi. Buni ta'minlashga yakuniy imtihon topshiriqlarini tuzgan o'qituvchi va Talabalarga xizmat ko'rsatish departamentidagi xodimlar mas'ul hisoblanadi.

59. Yakuniy imtihonlar Talabalarga xizmat ko'rsatish departamenti tomonidan tasdiqlangan grafik va o'quv reja asosida o'tkaziladi. Talabalarga xizmat ko'rsatish departamenti, fakultet dekanati va kafedra yakuniy imtihonni o'tkazish uchun mas'ul hisoblanadi. Yakuniy imtihonlar markazlashgan tartibda o'tkaziladi. O'tkazish shakli fanning xususiyatidan, moddiy-texnik bazadan kelib chiqib belgilanadi.

60. Yakuniy imtihonni o'tkazish uchun fakultet dekanati tomonidan ishchi komissiya va apellyatsiya komissiyasi tarkiblari shakllantiriladi. Ishchi komissiya tarkibi, rais, imtihon nazoratchisi va yakuniy imtihonni tekshiruvchi professor-o'qituvchilardan iborat bo'ladi. Apellyatsiya komissiyasi tarkibi rais va a'zolaridan iborat bo'ladi.

61. Yakuniy imtihonni topshirish uchun 3 akademik soatdan kam bo'lmagan vaqt belgilanadi. Vaqt oralig'i o'quv fani va topshiriqlarning xususiyatidan kelib chiqib, o'zgarishi mumkin.

62. Yakuniy imtihon yakunlanganidan so'ng, Akademik ishlar departamenti tomonidan nazorat topshiriqlari shifrlanadi va mas'ul xodimga topshiriladi. Mas'ul xodim tekshiruvchi o'qituvchilarga yakuniy imtihonni beradi. Ular bir hafta ichida tekshirib, baholangan nazorat ishlarini mas'ul xodimga, mas'ul xodim Akademik ishlar departamentiga topshiradi. Akademik ishlar departamenti shifrlangan nazorat topshiriqlarini identifikatsiya qilib, 1 ish kuni ichida talabalarga xizmat ko'rsatish departamentiga topshiradi. Departament tegishli fan o'qituvchilari ko'magida natijalarni talabalarga 3 ish kuni ichida e'lon qilib, e'lonlar doskasiga va universitetning ta'lim platformasiga joylashtiradi.

63. Yakuniy imtihonining natijalari 2 haftada e'lon qilinadi.

64. Talaba yakuniy imtihon natijalar e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat ichida fakultet dekanining nomiga apellyatsiya bo'yicha ariza berish huquqiga ega. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan 5 ish kuni ichida talabaning arizasi bo'yicha yakuniy imtihon ishi ko'rib chiqiladi. Apellyatsiya komissiyasi xulosasi muhokama qilinmaydi.

65. Yakuniy imtihonga kiritilgan va fanga ajratilgan kredit olishning minimal

balini to'play olmagan talabalarga yakuniy imtihonni o'quv davri uchun bir marta bepul qayta topshirish imkoni beriladi. O'quv davri mobaynida bir martalik bepul imkoniyatdan foydalanmagan yoki belgilangan minimal balni to'play olmagan talabalar fandan akademik qarzdor (feyl) hisoblanadi hamda yozgi yoki qishki maktablarda to'lov asosida o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi.

66. Yakuniy imtihondan o'ta olmagan va bepul imkoniyatga ega talabaga faqatgina yakuniy imtihonni qayta topshirish imkoni beriladi. Avvalgi, baholash natijlari saqlanib qoladi va ularni qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

67. Oraliq hamda joriy imtihonlardan 19 ball va undan kam to'plagan talabalar yakuniy imtihonga qo'yilmaydi hamda akademik qarzdor (feyl) hisoblanadi.

68. Yakuniy imtihonga talaba belgilangan muddatda asosli sabablar bilan (asoslovchi hujjatlar keltiradi) ishtirok etmasa, qoldirilgan yakuniy imtihonini belgilangan grafik asosida qayta topshirish huquqiga ega.

69. Qoldirilgan yakuniy imtihonni topshirish uchun talaba:

- o'quv jarayoniga salbiy ta'sir qilmagan holda tuzilgan grafik asosida yakuniy imtihonga qadar qayta topshirish lozim;

- qoldirilgan yakuniy imtihon bo'yicha belgilangan tartibda apellyatsiya berish huquqiga ega;

- qoldirilgan yakuniy imtihonda ishtirok etmaganlarga boshqa muddatda yakuniy imtihon tashkil etilmaydi va akademik qarzdor (feyl) hisoblanadi.

3.2. Talabalar bilimini baholash mezonlari

70. O'quv fani (mavzu) bo'yicha talabaning bilimini baholash o'zlashtirish darajasiga asoslanadi.

71. O'quv fani (mavzu) bo'yicha bilimi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy, kreativ fikrlay oladi, fanlararo (mavzulararo) mantiqiy bog'lanishni tushunadi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fan (mavzu)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi, boshqalarga o'rgatadi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvur, ko'nikma va bilimga ega deb topilganida 95-100 (baho - A+; 4,5 baho) foiz;

- talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fan (mavzu)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi, boshqalarga o'rgatadi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvur, ko'nikma va bilimga ega deb topilganida 90-94 (baho - A; 4,0 baho) foiz;

- talaba mustaqil xulosa qiladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fan (mavzu)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi,

aytib beradi, hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvur, ko'nikma va bilimga ega deb topilganida 80-89 (baho - V+; 3,5 baho) foiz;

- talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fan (mavzu)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi, hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvur, ko'nikma va bilimga ega deb topilganida 70-79 (baho - V; 3,0 baho) foiz;

- talaba fan (mavzu) bo'yicha fikri shakllangan, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fan (mavzu)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvur, ko'nikma, bilimga ega deb topilganida 65-69 (baho - S+; 2,5 baho) foiz;

- talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fan (mavzu)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvur, ko'nikma, bilimga ega deb topilganida 60-64 (baho - S; 2,0 baho) foiz;

- talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fan (mavzu)ning mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganida 0-59 (baho - F; 0 baho) foiz – akademik qarzdor (feyl) hisoblanadi.

72. Nazorat turlarini o'tkazish bo'yicha tuzilgan topshiriqlarning mazmuni talabaning qoldiq bilimni xolis (ob'yektiv) va aniq baholash imkoniyatini berishi shart.

73. Fanlarni o'rgatish bo'yicha guruh talabalari darajalarga bo'linishi mumkin. Guruh talabalari bilimi bo'yicha uch guruhga bo'linadi. Bunda: "A" daraja yangi boshlovchi talabalar guruhi; "V" daraja fan bo'yicha o'rtacha bilimga ega talabalar guruhi; "S" daraja fan bo'yicha yuqori bilimga ega bo'lgan talabalar guruhi.

74. Ingliz tili fani darajalarga bo'linganida "A" daraja "Elementary", "B" daraja "Pre-intermediate" "C" daraja "Intermediate"ga tenglashtiriladi. Akademik ma'lumotnoma, o'zlashtirish qaydnomasi va boshqa hujjatlarga talabaning bahosi quyidagicha shaklda ko'chiriladi: English (Elementary); English (Pre-intermediate); English (Intermediate).

4-bob. Talabalar bilimni baholash ko'rsatkichlari

4.1. Baholash tavsifi

75. **Loyiha ishi.** Fanning xususiyatidan kelib chiqib, talaba mini guruhlarga bo'lingan holda berilgan vazifalarni taqdimot, media, yozma yoki vizual ko'ranishida himoya qiladi. Guruh a'zolari (komanda) uyushgan holda pedagog-o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni bajarib kelishadi. Guruhga qo'yilgan umumiy ball, har bir a'zo-talabaga qo'yilgan individual ball sifatida qayd etiladi. Mustaqil ta'limda berilgan topshiriqlar asosida bilimi sinaladi.

76. **Vazifa/topshiriqlar.** Har bir talaba individual tarzda o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli vaziyat, masala, topshiriqni esse va hisobot ko'rinishida bajaradi. Mustaqil ta'limda berilgan topshiriqlar asosida bilimi sinalladi.

77. Talabalar ta'lim dasturi doirasida o'qitish shaklidan qat'iy nazar, Universitet tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan quyidagi baholash mezonlari asosida baholanadi.

4-jadval

Kredit ta'lim tizimida baholashning tavsifi

Baho	Foiz	Shkala
A+	95-100	4,5
A	90-94	4
B+	80-89	3,5
B	70-79	3
C+	65-69	2,5
C	60-64	2
F	0-59	0

78. Universitetda baholash jarayoni xalqaro ta'lim standartlariga asosan amalga oshiriladi. Shu jumladan, boshqa xorijiy hamda mahalliy oliy ta'lim muassasalarining baholash jarayoniga mos kelishi, ya'ni akademik mobillik dasturini ta'minlash maqsadida baholash konvertatsiya qilish orqali amalga oshiriladi.

5-jadval

Qo'qon universiteti baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertatsiya qilish jadvali

2019 yildan boshlab O‘zbekiston OTMlari baholash tizimi	Rossiya Federatsiyasi baholash tizimi	Yevropa mamlakatlari sinov birliklarini ko‘ chirib o‘ tish va to‘ plash tizimi	AQSH baholash tizimi (A — F)	Buyuk Britaniya baholash tizimi (%)	Yaponiya baholash tizimi(%)	Koreya Respublikasi baholash tizimi (%)	2019 yilga qadar O‘zbekiston OTMlari baholash tizimi	Qo‘ qon universiteti	
								A-F	%
«5»	«5»	«A»	«A+»	70 - 100	80 - 100	90 - 100	86 - 100	A+ A	95-100 90-94
			«A»						
			«A-»	65 - 69					
«4»	«4»	«B»	«B+»	60 - 64	70 - 79	80 - 89	71 - 85	B+ B	80-89 70-79
		«C»	«B»	50 - 59					
			«B-»						
«3»	«3»	«D»	«C+»	45 - 49	60 - 69	70 -	55 - 70	C+	65-69

		«E»	«C»	40 - 44		79		C	60-64
			«C-»						
			«D+»						
			«D»						
			«D-»			60 - 69			
«2»	«2»	«F»	«F»	0 - 39	0 - 59	0 - 59	0 - 54	F	0-59

4.2. Baholash natijalarini qayd qilish tartibi

79. Talabalar bilimini baholash tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi tomonidan HEMIS ta'lim platformasida qayd etib boriladi.

80. Professor-o'qituvchi qo'yilgan baholarni shu kunning o'zida qayd etib boradi. Agar baholash mustaqil ta'lim shaklida esse, assesment yoki boshqa turdagi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, bunda professor-o'qituvchi natijalarni kamida 3 ish kuni ichida platformaga qayd etishi lozim.

81. Vazifa/topshiriq va loyiha topshiriqlari sillabusda belgilangan muddatlarda o'tkazilib, ularning natijasi kamida 3 ish kuni ichida platformada qayd etib boriladi.

82. Oraliq imtihon va yakuniy imtihon natijalari 3 ish kunigacha platformada qayd etiladi.

83. Platformada baholash va yo'qlama qilishning o'z vaqtida, to'g'ri va xatosiz yuritilishi, shuningdek, undagi baho va boshqa ma'lumotlarga o'zgartirishlar kiritilmasligi uchun fakultet dekani va tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi mas'ul hisoblanadi.

84. Joriy va oraliq imtihon bo'yicha baholash natijalari yakuniy imtihondan oldin tegishli fan o'qituvchisi tomonidan platformada qayd etilishi shart.

85. Baholash natijalari kafedra majlislari, fakultet va Universitet Kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

4.3. O'zlashtirilmagan fanlarni qayta topshirish tartibi

86. Talaba 0-59 oralig'ida o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega bo'lgan taqdirda tegishli fandan akademik qarzdor (feyl) hisoblanadi.

87. Talaba bitta fandan auditoriyaga ajratilgan mashg'ulotlarning 1/3 qismini sababsiz qoldirsa, o'qiyotgan semestrda mazkur fandan akademik qarzdor (feyl) hisoblanadi. Fan bo'yicha unga qayta topshirish uchun bepul imkoniyat berilmaydi.

88. Fandan akademik qarzdor (feyl) talaba qishki va yozgi maktablarda akademik qarzdor (feyl) bo'lgan fanlarni qayta o'qishga va mazkur fanlardan yakuniy imtihonlarni qayta topshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

89. Talaba fandan kamida 60 ball to'plab belgilangan kreditlarni o'zlashtirishga erishgan taqdirda mazkur fanlan qayta topshirmaydi. O'zlashtirish natijasi diplom ballarida bir marta qayd etiladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

90. Ushbu tartib Qo'qon universitetida ta'limni kredit tizimida baholash jarayonlarini tartibga soladi.

91. Tartibga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Qo'qon universiteti Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.